O‘QUVCHILARNI MATEMATIKA FANIGA QIZIQTIRISHDA NOAN’ANAVIY TESTLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Babadjanov Azamat Kadamovich
Xorazm viloyati PMM “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20443669

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni matematika faniga qiziqtirishda noan’anaviy testlardan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar: Test, mostlik, jadval, tog‘ri ketma ketlik, savol-javob.

Аннотация: В данной статье обсуждается важность использования нетрадиционных тестов для вовлечения учащихся в изучение математики.
Ключевые слова: Тест, мост, таблица, правильная последовательность, вопрос и ответ.

Abstract: This article discusses the importance of using non-traditional tests to engage students in mathematics.
Key words: Test, bridge, table, correct sequence, question and answer.

Respublikamizdagi ta’lim maskanlarida o‘quvchilar bilimini sinashning test usuli joriy qilinishi ta’lim sifatini oshirishda ijobiy natijalar berayotganligi ma’lum. Ayniqsa bu usul aniq fanlarni o‘rganishda yanada samaraliroqdir. Ammo, har qanday yaxshi usuldan ham o‘z o‘rnida va to‘g‘ri foydalanilgandagina ijobiy natijalar berishi mumkin.

Hozirgi paytda aholi zich joylashgan joylarda o‘rta maktablarning har bir sinfida 30-35 ta, hatto undan ko‘p o‘quvchi ta’lim olayotganligi sir emas. Shunday vaziyatda o‘quvchilar bilimlarini sinashning qulay usularidan foydalanilmasa, og‘saki savol-javob usuli yetarlicha samara bermaydi. Chunki o‘quvchilar sonining ko‘pligi va vaqtning kamligi tufayli o‘qituvchi o‘quvchilar bilimini aniqlashga ulgura olmaydi. Bunday vaziyatda test usulidan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Shuning uchun har bir mavzuga yoki har bir bobga mo‘ljallangan testlar tuzish lozim.

Test usulining yaxshi samara bermasligining sabablaridan biri shundaki ko‘pincha test nomigagina bo‘lib, savol va 4-5 ta javobdan iborat bo‘lib qoladi. Yoki juda ko‘p savollari bir tipdaligi tufayli o‘quvchi uni bajarish jarayonida zerikib qoladi. Shuning uchun har bir fan o‘qituvchisi test tuzish qonun-qoidalarini, test tuzishga qo‘yilgan talablarini, test va uning turlari haqida yaxshi tushunchaga ega bo‘lishi kerak.

“Test” atamasi birinchi marta amerikalik psixolog J.Kettel tomonidan 1890 yilda kiritilgan. “Test” atamasi inglizcha “test” so‘zidan olingan bo‘lib, tekshirish, nazorat, sinov ma’nolarini bildiradi. Pedagogikada “test” atamasi o‘ziga xos shaklga va mazmunga, turli qiyinlik darajasiga ega bo‘lgan, o‘quvchilar o‘zlashtirishi darajasini holisona baholash imkoniyatini beradigan topshiriqlar tizimidan iborat. Test topshiriqlari ta’lim natijalarini xolisona nazorat qilishning didaktik va texnologik vositalaridan hisoblanadi.

Xozirgi kunda asosan testlarning an’anaviy turidan ko‘proq foydalanilmoqda. Ammo ushbu testlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini holisona baholash uchun yetarli emas. Testlarning noan’anaviy turlaridan ko‘proq foydalanilsa o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlab qolmay ularni ijodiy yondashishga undaydi va dunyo qarashini kengaytiradi. Quyida matematika o‘qituvchilari uchun noan’anaviy testlardan namunalar keltirilgan bo‘lib dars jarayonida keng foydalanilsa maqsadga muvofiqdir:

1. Quyidagi buyuk allomalarning nomini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

1) Al-Xorazmiy; 2) Ibn Sino; 3) Umar Xayyom; 4) Al-Beruniy; 5) Mirzo Ulug'bek; 6) Farobiy; 7) Nasriddin Tusiy

						

2. Rasmda berilgan trapetsiyaning qismlariga mos harflarni aniqlang va yozing.



Trapetsiya qismlari	Harflar
Kata asosi	
balandligi	
Kichik yon tomoni	
Kichik asosi	
Katta yon tomoni	
Dioganallarini kesishish burchagi	
Dioganallari	

3. Rasmda berilgan parallelogramm ning qismlariga mos harflarni aniqlang va yozing.

Parallelogramm



Parallelogramm qismlari	Harflar
Asosi	
balandligi	
Yon tomoni	
Asosi va yon tamonini kesishish burchagi	
Dioganallarini kesishish burchagi	
Dioganallari	

4. Quyidagi matematik so'zlarni mos ta'riflar bilan juftlang.

1	Tenglama	A	Boshlang'ich tushuncha
2	Funksiya	B	Ikkita ifodani qiyoslash
3	Tengsizlik	C	X to'plamni Y to'plamga akslantirish
4	To'plam	D	Noma'lum qatnashgan tenglikka

Javob:	1-	2 -	3 -	4 -

5. Gemetrik shakllarga mos raqamlarni jadvalning o'ng tomoniga yozing.

1) Kvadrat 2) teng tomonli 3) romb 4) Paralellogramm 5) teng yonli 6) o'tkir burchakli 7) trapetsiya 8) o'tmas burchakli

Geometrik shakllar	javob raqamlar
Uchburchak turlari	
To'rtburchak turlari	

Bunday noan'anaviy testlar yordamida barcha o'quvchilarning bilimini bir vaqtda aniqroq baholab, ularni mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, mustaqil o'qishga o'rganish, intizomli bo'lish kabi ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Qolaversa bunday testlarni tuzishda o'qituvchilarning sabr qanoati, izlanuvchanligi, ijodkorligi oshadi va dunyoqarashi kengayib boradi. Noan'anaviy testlardan dars jarayonlarida foydalanib borilsa ta'lim sifatini oshirishda o'z samarasini beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saxayev M.S. Elementar matematikadan masalalar tuplami. – Toshkent: «O'qituvchi», 1977
2. Umirbekov A.U., Shoabzalov Sh.Sh. Matematikani takrorlash – Toshkent: «O'qituvchi», 1989